

XIVA XONLIGINING TUGATILISHI

Mahmudov Mirsaid Mavlon o'g'li

Termiz Davlat Pedagogika Instituti Tarix fakulteti, tarix yo'nalishi uchinchi bosqich talabasi

maxmudovmirsaid6@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqola Turkiston va Buxorodan farqli o'laroq, Xiva xonligidagi jadidchilik harakatining shakllanishi va Xiva xonligida tarqalishi, Xiva xonligining tugatilishi haqida.

Kalit so'zlar: Polvonniyoz Hoji Yusupov, Jadidchilik, sardori karim, Tinchlik shartnomasi, Xorazm Kompartiyasi.

Kirish

Hududiy jihatdan yagona bo'lgan O'rta Osiyoda jadidchilik harakati bir vaqtda paydo bo'lgan bo'lsa-da, o'z oldiga qo'ygan kurash maqsadlari jihatidan ikki xil yo'nalish kasb etgan. Jumladan, Turkiston jadidlari o'z oldilariga bosh maqsad qilib Turkiston o'lkasini Rossiya mustamlakachilaridan ozod qilish va milliy mustaqil davlat tuzishni qo'ygan bo'lsalar, Buxoro va Xiva jadidlari hokimi mutloq, o'z monarxlari bo'lgan amir va xon zulmiga qarshi kurashni bosh maqsad deb belgiladi.

Yosh buxoroliklar va yosh xivaliklar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi taqozosiga ko'ra xalq ommasi o'rtasida mustahkam tayanch bazaga ega emas edilar. Ular o'zlariga ittifoqchilarni chetdan izladilar va Rossiya timsolida amir va xon zulmidan ozod bo'lish mumkin, degan fikrga borib, katta siyosiy xatoga yo'l qo'ydilar.

1917-yil 5-aprelda Husaynbek Matmurodov boshliq yosh xivaliklar delegatsiyasi Nurullaboy saroyiga keladi. Bu yerda shoshilinch tarzda yosh xivaliklarning talablari manifest loyihasi sifatida yozilib, Xiva xoniga topshiriladi. Manifestni Asfandiyorxon va uchta qozi - domulla Ibrohim, oxun alam, qozi ul-quzot domulla Hikmatulla Xo'ja oxun, qozi ul-quzot domulla Xudoybergan oxunlar imzolaydi.

1917-yil noyabr oxirida Majlisni butun- lay tugatdi. Yosh xivaliklar xonlik hududidan chiqib ketishga majbur bo'ldilar. 1918-yil boshlarida Toshkentda Polvonniyoz Hoji Yusupov boshchiligida yosh xivaliklar qo'mitasi tuzilgan. Yosh xivaliklar taktik maqsadlarni ko'zlab, bolsheviklar bilan yaqinlashdi.

Asfandiyorxon 1918-yil 10-yanvarda turkmanlar sardori Junaidxon Qurbon Mamedni Xivaga taklif qildi. 22-yanvarda esa yuqori martabali amaldorlar va din ahllari ishtirokida davlatni birga boshqarish hamda bolsheviklarga qarshi kurashish uchun Junaidxon bilan Xivada muzokara olib bordi. Junaidxon va uning tarafdorlari xonning oliy amaldorlari oldida eski qabila va urug'chilik asoslaridagi adovatlarini unutib, sidqidildan xizmat qilishga qasam ichdilar. Shundan so'ng Asfandiyorxon Junaidxonni «sardori karim» (qo'shinlar qo'mondoni) qilib tayinladi. Shu bilan o'zi Junaidxon qo'lidagi qo'g'irchoq xonga aylanib qoldi.

Asfandiyorxon 1918-yil 10-yanvarda turkmanlar sardori Junaidxon Qurbon Mamedni Xivaga taklif qildi. 22-yanvarda esa yuqori martabali amaldorlar va din ahllari ishtirokida davlatni birga boshqarish hamda bolsheviklarga qarshi kurashish uchun Junaidxon bilan Xivada muzokara olib bordi. Junaidxon va uning tarafdorlari xonning oliy amaldorlari oldida eski qabila va urug'chilik asoslaridagi



adovatlarini unutib, sidqidildan xizmat qilishga qasam ichdilar. Shundan so'ng Asfandiyorxon Junaidxonni «sardori karim» (qo'shinlar qo'mondoni) qilib tayinladi. Shu bilan o'zi Junaidxon qo'lidagi qo'g'irchoq xonga aylanib qoldi.

Xonlikdagi hokimiyat esa to'la ravishda Junaidxon qo'lga o'tgan bo'lishiga qaramasdan, 1918-yil 30-sentabrda xon saroyiga katta o'g'li Eshshi rahbarligida harbiy qo'shinni yuboradi. 1-oktabr kuni qabul marosimi vaqtida Asfandiyorxon o'ldiriladi, uning o'rniga taxtga xonning tog'asi, irodasiz Said Abdullaxon (1918-yil oktabr-1920-yil 2-fevral) chiqarilgan. Abdullaxon ham nomigagina xon edi, 1918-yildan boshlab butun hokimiyat to'laligicha Junaidxon qo'lga o'tdi.

XX asr boshlarida ham Rossiya imperiyasining yarim mustamlakasi hisoblangan Xiva xonligidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, boshqaruv tizimi ruslar bosqiniga qadar shakllangan holatda qolgan edi. Mamlakatda xon boshliq feodal amafdorlar, dindor ruhoniylar matniakat boshqaruvida cheklanmagan huquqqa ega bo'lib, iqtisodiy hayotda esa yerga egalik munosabatlari ham avvalgi holatdagidek saqlanib qolgan edi. Imperiya hukmronligi ta'sirida ko'pgina yuqori mansablar (inoq, otaliq, biy) oldingidek iqtisodiy asosini yo'qotgan bo'lsa ham, lekin yuqori unvon sifatida mamlakat siyosiy hayotida katta ta'sirga ega edi.

Xiva xonligidagi asosiy shaharlarga Xiva, Urganch, Toshhovuz, Hazorasp, Pitnak va boshqalar kirgan. Xonlik hududi Rossiya bosqinidan keyin 62.236 kv.km bo'lib, u 20 ta beklik va 2 ta noiblikdan iborat edi.

Aholi aniq ro'yhatga olinmagan bo'lib, bu davrga oid manbalarda, u 600 mingdan 900 mingga qadar ko'rsatiladi. Ularning 60 foizdan ko'prog'ini 'zbeklar, 28 foizini turkmanlar, qolganlarini qozoq, qoraqalpoq, fors, oniy), arab, rus va boshqa millat vakillari tashkil etgan.

Ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotda ancha orqada qolgan Xiva xonliyda sanoat ishlab chiqarishi yo'q darajada bo'lib, bu yerda o'ndan ortiq paxta, yog' zavodlarigina bor edi. Aholining asosiy qismi dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, kosibchilik va boshqalar bilan shug'ullangan. Xalq ommasining turmush sharoiti ancha og'ir bolib, ular hosildor yerlar, sug'orish manbalarini o'z qo'lida to'plab olgan amaldorlar va ruhoniylarga ko'plab soliqlar to'lab turganlar. O'sha davr raanbalarida qayd qilinishicha, Xiva xonligida 20 dan ortiq soliq to'lovlari va majburiyatlar bo'lgan. Ayniqsa, Birinchi jahon urushi I yillarida soliq va to'lovlarning miqdori hamda turi yanada oshgan.

XX asr birinchi choragida butun Turkiston o'lkasi, Buxoro amirligi kabi Xiva xonligida ham xalq harakatining mafkuraviy asosini jadidchilik harakati, jadidchilik g'oyalari tashkil etdi. Turkiston va Buxorodan farqli o'laroq, Xiva xonligidagi jadidchilik harakatining shakllanishida. harakatning asosiy yo'nalishi hisoblangan maktab, maorif ishining taraqqiyotida Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (Feruz), qozikalon Salimoxun va uning o'g'li Bobo'xon, vazir Islomxo'ja, mirzaboshi va devonbegi lavozimida ishlagan Pahlavonniyoz Komil Xorazmiy, Xonqa xokimi Muhammad va boshqalar katta rol o'ynadilar. Ular o'z hisoblaridan bir qancha maktablar ochishdi. Bobo Oxun Salimov do'sti Bekjon Rahmonov bilan bu maktablar uchun darslik kitoblarini ham yozishgan. Xonlikda jadidchilik harakatining shakllanishida Munis, Ogahiyalar asos solgan va keyinchalik Bayoniy boshchiligida davom ettirilgan tarixchilik va tarjimonlik raaktabining mavjudligi, tarix va o'tmishga e'tiborning kuchliligi ham katta rol o'ynagan. Shuningdek, Turkiston va Buxorodagi kabi Xiva xonligida jadidchilik harakatining shakllanishida tashqi omil, ya'ni Rossiyadan kelgan ilg'or fikrli ziyolilar, inqilobiy ruhdagi surgun qilingan yoshlar va Rossiyadagi o'zgarishlar ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Jadidchilikning asosiy yo'nalishlaridan bir bo'lgan matbuot Xiva xonligi hududida mavjud bo'lmasa ham xonlikdagi ilg'or ziyolilar Turkiya, Eron, Rossiya, shuningdek, Toshkent Samarqand va Buxoroda chiqadigan jadid gazetalari va jurnallari bilan tanishib borganlar.

Xorazmdagi jadidchilik harakatidan 1914 yil avgust oyida Yosh xivaliklar tashkiloti tuzildi, unga rais qilib Polvonniyoz Hoji Yusupov (1861-1936) saylangan. Yosh xivaliklar harakatida bu davrda



qozikalon Bobo Oxun Salimov (1874-1929)ning ham o`rni bo`lakcha edi. Yosh xivaliklar dasturining asosini mavjud tuzum doirasida islohotlar o`tkazish. maktab-maorif ishini yaxshilash. xon hokimiyatini cheklash kabi masalalar tashkil qilar edi.

Iqtisodiy qiyin sharoitda yashayotgan xonlik aholisining ahvoli boshlanib ketgan birinchi jahon urushi bois yanada og`irlashdi. Xonlik istibdodiga qarshi 1915-1916 yillarda turkmanlar Junayidxon boshchiligida qo`zg`olon ko`tardilar. Turkman, O`zbek, qozoq aholisining mavjud tuzumga qarshi kurashini Yosh xivaliklar partiyasi rahbarlari faol qo`llab-quvvatlashdi.

1917-yil fevral inqilobi paytida Xiva xoni Asfandiyorxon Yaltada dam olayotgan edi. Shuning uchun ham u Rossiya imperatorining taxtdan voz kechganini eshitgan zahoti xonlikka shoshildi. Asfandiyorxonni kutib olishga chiqqan davlat arboblari orasida Husaynbek Matmurodov, Polvonniyoz Hoji Yusupovlar harn bor edilar. Xiva garnizonidagi soldatlar ham xuddi Rossiyadagi kabi o`z sovetlarini tashkil qilishgan edilar. Ana shu sovetlarning faollaridan Latipov, Tinishev va boshqalarning tashviqotlari bilan Polvonniyoz Hoji Yusupov boshliq Yosh xivaliklar 4 aprelda soldatlarning Muvaqqat hukumatga qasamyod qilishi uchun to`plangan tantanaga kishilarni yig`ib borib, soldatlardan Xiva xonini ag`darib tashlashni so`rashdi. Garnizon boshlig`i xonni taxtdan olib tashlamaslik talabi bilan Yosh xivaliklarga yordam berishga ruxsat berdi. 5 aprel kuni Asfandiyorxon rus soldatlari hlmoyasida saroyga kelib, xalq nomidan qo`yiladigan talab (manifest)ni imzolashga majbur bo`ldi, Manifestga asosan xon hokimiyati qoshida qonun chiqaruvchi organ - Majlis va Nozirlar kengashi tashkil etildi. Majlisning birinchi yig`ini 1917-yil 26 aprelda bo`lib o`tdi. Unda Majlis raisi etib, Bobo Oxun Salimov, nozirlar kengashining raisi etib, Husaynbek Matmurodov saylandilar. Bu tashkil qilingan davlat organlari tarkibida Yosh xivaliklarning a'zolari ko`pchilikni tashkil qilar edi. Lekin keyinchalik Asfandiyorxon Xiva garnizoni boshlig`i general Mirbadalov va Zaytsevlarning yordami bilan Majlisdan Yosh xivaliklarning a'zolarini siqib chiqarishga muvaffaq bo`ldi. Turli bahonalar bilan Husaynbek Matmurodov va bir qancha Yosh xivaliklarni zindonga tashladi. Polvonniyoz Hoji Yusupov, Nazir Sholikorov, Bobo Oxun Salimov, Jumaniyoz Sultonmurodov, Bobojon Yaqubov va boshqalar xonning ta'qibidan qutulish uchun To`rtko`l, Chorjo`y, Toshkent kabi shaharlarga qochib ketishdi. Bu paytda To`rtko`l va Toshkentda sovet hokimiyati o`rnatilgan edi. Sovet hukumati orqali Yosh xivaliklarning Asfandiyorxon, Zaytsev, Junayidxonlarga o`z hamfikrlarini zindondan olib qilishni talab qilib, yuborgan bir qancha telegrammalari hech qanday natija bergani yo`q. Aksincha. oktyabr to`ntarishidan keyin Xiva shahridan rus askarlari olib chiqib ketildi va Asfandiyorxon o`zining harbiy tayanchidan mahrum bo`ldi. Bu 1916 yil qo`zg`olonidan keyin Eronga qochib ketgan Junayidxonning Xiva xonligiga qaytib kelishi va bu yerda katta mavqega ega bo`lishiga sabab bo`ldi. Chunki mingdan ortiq qurollangan sarbozlarga ega bo`lgan Junayidxon bilan murosa qilmasdan Asfandiyorxon va uning atrofidagi a'yonlar bundan keyin hokimiyatni saqlab qolishga tayanchlari yo`q edi. Shuning uchun hatn Asfandiyorxon Junayidxonni "sardori karim", ya'ni xonning lashkarboshisi qilib tayinladi. Shu bilan o`zi Junayidxon qo`lidagi qo`g`irchoq xonga aylanib qoldi. Xonlikdagi hokimiyat esa to`la ravishda Junayidxon qo`liga o`tdi. Toshkentga yetib kelgan Polvormiyoz Hoji Yusupov boshliq Yosh xivaliklar 1918 yil bahorida sovet hokimiyatining faollaridan biri bo`lgan Yusuf Ibragimovning maslahati bilan o`zlari to`rt kishi bo`lishiga qaramasdan Yosh xivaliklar partiyasining Markaziy qo`mitasini tashkil qildilar.

1918-yil oktabr oylariga kelganda, yosh xivaliklar ta'siri bilan Junayidxon va Asfandiyorxon o`rtasiga nizo solindi va buning natijasi o`laroq Junayidxonning o`g`li Eshshi tomonidan Asfandiyorxon qatl qilindi. Uning o`rniga akasi Sayid Abdulloxon xon deb e'lon qilindi. Junayidxon Xiva xonligi hududida bolsheviklardan mustaqil bo`lgan davlatni saqlab qolishga harakat qildi. 1918 yil noyabr oyida Amudaryoning o`ng qirg`og`idagi yerlarda tashkil qilingan sovet hukumatiga qarshi Junayidxon



bir necha marotaba muvaffaqiyatsiz urush olib bordi. 1919 yil aprel oyida sovet hukumati bilan Junayidxon o'rtasida Taxta shartnomasi tuzildi. Unga sovet hukumati tomonidan Xristoforov, Xiva xonligi tomonidan Junayidxon imzo chekdilar. Bu vaqtinchalik kelishuv bo'lib, unga ikkala tomon ham amal qilmadi. Bu paytda To'rtko'lda mulla Juraaniyoz Sultonmurodov boshliq Yosh xivaliklar partiyasining qo'mitasi tuzilgan bo'lib, ularning soni Xiva xonligi hududidan qochib o'tganlar hisobiga kundan-kunga ko'payayotgan edi. Ularni sovet hukumati xivalik inqilobchilar deb, bolsheviklar partiyasi safiga qayd qilishgan. Mana shu Yosh xivaliklarning talablari va turkman urug'lari orasida Qo'shmamedxon, Gulomalixon kabi urug' sardorlarining Junayidxon bilan kelishmay qolganligi haqidagi xabarni hisobga olgan bolsheviklar Skalov rahbarligida 1919 yil 22 dekabrda mustaqil davlat-Xiva xonligi hududiga bostirib kirdilar. 1920 yil 1 fevralda Junayidxon qo'shinlarini tor-mor qilgan qizil armiya Xiva 1 shahriga kirib bordi. 2 fevral kuni so'nggi Xiva xoni Sayid Abdulloxon taxtdan voz kechdi.

Xivada Jumaniyoz Sultonmurodov rayisligida Muvaqqat inqilobiy qo'mita tashkil etildi. 1920-yil 26-30 aprel kunlari Xorazm I mehnatkashlarining birinchi qurultoyi bo'lib o'tib, unda Xiva xonligi hududida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tashkil etilganligi e'lon qilindi va Polvonniyoz Hoji Yusupov rayisligida Xalq Nozirlar Sho'roi tuzildi. Bu hukumat tarkibiga asosan Yosh xivaliklar partiyasining a'zolari kirgan bo'lib, ular mamlakatda demokratik tuzumni o'rnatish, mustaqil davlatni barqarorlashtirish borasida katta ishlarni amalga oshirdilar. Ana shunday ishlarning bittasi sifatida Bobo Oxun Salimov raisligidagi delegatsiyaning uch oy davomida Moskva va Petrograd shaharlarida bo'lib, 1920-yil 13-sentabrda RSFSR bilan XXSR o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy shartnomaning imzolanishi bo'ldi. Bu hujjatga asosan XXSR mustaqil davlat hisoblanib, sovet Rossiyasi bilan o'zaro teng va bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslikka kelishib olindi. Lekin XXSR hukumati rahbarlari olib borgan mustaqil siyosat sovet tuzumi va uning respublika hududidagi vakillariga yoqmadi. Chunki Polvonniyoz Hoji Yusupov boshliq hukumat xususiy mulk, vaqf yerlarini, diniy muassasalarni tarqatib yuborish o'rniga ularni saqlab qolish va mustahkamlashga harakat qilayotgan edi. XXSRning Konstitutsiyasida ham xususiy mulk e'tirof etilgan edi. Bu narsa o'sha paytdagi sovet hukumatining Xorazmdagi vakillari Skalov, loffe, Dubyanskiy, Shokirov va boshqalarga yoqmadi. Dubyanskiy va Shokirovlar 1920 yil avgust oyida Qo'shmamedxon va Gulomalixonlarni Xivaga chaqirib, ularni yigitlari bilan qatl qilishga va bu bilan mahalliy o'troq aholi va turkman chorvadorlari o'rtasida nizo tug'dirishga harakat qilishdi. Gulomalixon qochib qutilgan bo'lsa ham, Qo'shmamedxon va uning yigitlari qatl etildi. Biroq bu holatlarning hammasi Yosh xivaliklar hukumati zimmasiga yuklatildi.

Urush harakatlari tamom bo'lgach, Rossiya va Xiva o'rtasida sulh shartnomasi tuzildi. Garchi mazkur shartnoma «Tinchlik shartnomasi» deb nomlansa-da, aslida u ikki teng huquqli davlatlar o'rtasida tuzilgan shartnoma bo'lmay, balki qurol kuchi bilan g'olib kelgan Rossiya tomonidan xonlikni mustamlakaga aylantirish haqidagi hujjat edi. Butun mamlakati hududi rus qo'shinlari tomonidan egallangan Said Muhammad Raximxon II Kaufmanning barcha talablarini bajarishga, o'zini Rossiya imperatorining sodiq xizmatkori deb tan olishga majbur bo'ldi. «Tinchlik shartnomasi» ga 1873 yil 12 avgustda rus qo'shinlarining Gandimiyon bog'idagi manzilgoxida Rossiya tomonidan Kaufman, Xiva xonligi tomonidan Said Muhammad Raximxon imzo chekdilar.

18 baddan iborat mazkur shartnomaga ko'ra, Xiva xonligi o'zining siyosiy-iqtisodiy mustaqilligini yo'qotdi. Shartnomaning birinchi bandiga binoan Said Muhammad Raximxon Rossiya podshosining vassali deb e'lon qilindi. Rossiya hukumatining Xiva xonligini davlat sifatida tugatmay, xonlik hukumatini saqlab qolishdan maqsadi, o'zining bosqinchilik siyosatini yashirish va boshqa tomondan esa agar xonlik Rossiya tarkibiga qo'shib olinsa, uning hududi kichikligi, iqtisodiy jihatdan zaifligi bois bu erda saqlanishi lozim bo'lgan ma'muriyat, harbiy qo'shinga sarflanadigan mablag'lar



va boshqa sarf-xarajatlar o'zini oqlamaydi, degan fikrda edilar. Rossiya hukmron doiralari Xiva xonligida o'zlariga sodiq, kuchli mahalliy hukumatni saqlab, uni imperiya manfaatlar uchun xizmat qildirishni rejalashtirgan edilar. Shuningdek, birinchi bandda xon boshqa davlatlar bilan Rossiya hukumatining ruxsatisiz har qanday aloqa o'rnatishdan voz kechishi belgilandi. Xiva xoni qo'shni davlatlar bilan mustaqil diplomatik munosabatlar o'rnatish huquqidan ham butunlay maxrum etildi.

Shartnomaning ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi bandlari Xiva xonligining yangi chegaralarini belgilashga doir edi. Uchinchi bandga ko'ra xonlikning Amudaryoning o'ng tomondagi erlari o'sha erda yashayotgan barcha o'troq va ko'chmanchi aholisi bilan birga Rossiya tarkibiga o'tdi. Bu bilan xonlik umumiy er maydonining yarmidan ko'prog'idan, ya'ni 76 ming kv.km idan maxrum bo'ldi. O'zida hammasi bo'lib 62.237,2 kv.km er maydoni qoldi. Bu tomondagi yerlarning avvalgi egalariga Amudaryoning chap soxilidan yer ajratib berish majburiyatini xon o'z zimmasiga oldi. Masalan, Matniyoz devonbegining bog'i va uning atrofidagi yerlarga ruslarning harbiy istexkomi qurishga qaror qilingandi. Xon unga o'sha miqdordagi yerni Amudaryoning chap soxilidan ajratib beradi. To'rtinchi bandda Rossiya imperatorining xohishiga binoan Xiva xonligining Amudaryo o'ng soxilidagi erlarining bir qismi, ya'ni, Mishoqlidan to Ko'gartligacha bo'lgan erlari Buxoro amirligi ixtiyoriga berilishi belgilab qo'yildi. Bu bilan Rossiya hukumati ikki qo'shni davlat, Buxoro va Xiva o'rtasiga nizo solishni maqsad qilib qo'ygan edi. Chunki keyinchalik bu ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar yaxshilansa, Rossiyaning hukmronligiga xavf tug'dirishi mumkin edi.

Beshinchi band Amudaryoda kemalar qatnoviga tegishli bo'lib, rus hukumatining ruxsatisiz Xiva va Buxoro kemalarining suzishi taqiqlandi. Bu bilan rus kemalarining Amudaryoda tanxo hukmronligi o'rnatildi. «Birjevie vedomosti» gazetasi bu haqida shunday yozadi: «Shartnomaning bu bandi kelajakda savdo-sotiq butunlay ruslar qo'liga o'tishini ta'minlaydi. Daryo bir necha yillardan so'ng karvon yo'llarining o'rnini egallaydi va temir yo'llar qurilgan taqdirda ham asosiy savdo aloqalari Amudaryo orqali amalga oshiriladi»

Oltinchi bandga binoan, Amudaryoning chap soxilida ruslar o'zlari uchun qulay va zarur deb hisoblagan joylarda kemalar to'xtaydigan bandargoxlar qurish huquqiga ega edilar. Ular xavfsizligini ta'minlash xonlik hukumati zimmasiga yuklandi. Yettinchi banddan o'n uchinchi bandgacha savdo-sotiq va boshqa iqtisodiy masalalar belgilangan edi. Bu bandlarga ko'ra, xonlikning iqtisodiy qaramligi rus savdogarlari hamda sanoatchilarining ustunligi va imtiyozlarini himoya qilishga xizmat qilmog'i kerak edi. Ana shu nuqtai-nazardan kelib chikib rus savdogarlariga xonlikda bir qancha imtiyozlar berildi. Xiva xonligining barcha shahar va qishloqlari rus savdogarlari uchun ochiq deb e'lon qilindi. Butun xonlik bo'ylab rus savdogarlari va karvonlari erkin yurish va mahalliy hukumatning alohida xomiyligidan foydalanish huquqiga ega edilar. Rus savdo karvonlari va omborlari xavfsizligini ta'minlash ham xonlik hukumati zimmasiga yuklandi. Xonlik hududida savdo qiluvchi rus savdogarlari zakot va boshqa turli xil savdo majburiyatlaridan ozod qilingan edi. Xonlik hududi orqali boshqa davlatlarga mol olib o'tuvchi Rossiya fuqarolari ham boj to'lovlaridan ozod qilingandilar. Shuningdek, rus savdogarlari xonlikning barcha shaharlarida o'zlarining ishonchli vakillarini tayinlash huquqiga ega bo'ldilar. Xiva xonligida rus savdogarlari uchun Buxoro amirligidan ham kengroq imtiyozlar berilgan edi. Buxoro amirligida rus savdogarlari 2 foiz boj to'lar edilar.

Rossiya fuqarolari Xiva xonligida ko'chmas mulk sotib olish huquqiga ham ega edilar. Rossiya savdogarlariga Xiva xonligida katta imtiyozlar berib, ular bilan xonlik mahalliy savdogarlari o'rtasida noteng raqobat muxiti vujudga keltirildi. Natijada Xiva xonligining tashqi savdosi asta-sekin rus savdogarlari qo'liga o'tdi. Mahalliy savdogarlarning ko'pchiligi ularning xonlikdagi vakili bo'lib qolgandi. Shartnomaning alohida e'tiborga molik o'n to'rtinchi va o'n beshinchi bandlarida Rossiya fuqarolarining xivaliklar ustidan qilgan shikoyati xonlik hukumati tomonidan zudlik bilan ko'rib chiqilib, shikoyatchi foydasiga xal etishi belgilab qo'yildi. Rus fuqarolari xonlik hududida jinoyat



sodir etgan taqdirda qozilar ularni javobgarlikka tortishga huquqli emasdilar. Buning natijasida ko'p hollarda xonlikda yashovchi rus fuqarolari jinoyat sodir etganda mahalliy beklar biron-bir chora ko'rishga ojiz qolardilar. O'n oltinchi band Xiva xonligining qaram davlatga aylanib, siyosiy mustaqilligini butunlay yo'qotganligini ayniqsa, o'zida yaqqol namoyon etgan bo'lib, unda: «agar rus fuqarolaridan jinoyat etgan biror kishi Xiva xonligi hududiga yashirinsa, uni xonlik hukumati ushlab, yaqin oradagi rus ma'muriyati ixtiyoriga topshirishi» qat'iy belgilab qo'yildi. Shartnomaning o'n sakqizinchi bandi Rossiyaga Xiva xonligi to'lashi lozim bo'lgan ikki million ikki yuz ming so'm tovon puli masalasiga taallukli edi. Xiva xonligi bunday katta miqdordagi mablag'ni birdaniga to'lash imkoniyatiga ega bo'lmaganligi bois uni yiliga 5 foiz ko'shimchasi bilan yigirma yil mobaynida to'laydigan bo'ldi.

1919 yilning oxirlariga kelib sovet hukumati Xiva xonligini bosib olish bo'yicha tayyorgarlik ishlarini nihoyasiga yetdi. Bolsheviklar doimgidagidek Xivani bosib olish jarayonida tub yerli aholi o'rtasida birlik va hamjihatlikning yo'qligidan, qabila va urug'lar o'rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshiliklardan foydalandi. Bu o'rinda Junaidxon qarshi bo'lgan turkman urug' boshliqlari Qo'shmamedxon, G'ulomalixon va Yaxshigeldilarning aldanib, 1919 yil noyabrda bolsheviklar tomoniga o'tishlari muximdir. Xiva xonligi hududlarini bosib olish Moskva va Toshkentdagi sovet hukumati tayyorlagan dastur asosida amalga oshirildi.

Turkiston Respublikasi Harbiy inqilobiy Kengashi 1919 yil 22 dekabrda Xiva xonligiga qarshi harbiy harakatlarni boshlash haqida qaror qabul qiladi. Qarorga asosan qizil askarlardan ikkita otryad tuzilib, Janubiy otryadga Shcherbakov, Shimoliy otryadga Shaydakov qo'mondonlik qildi. Shu kuni qizil askarlar Amudaryo bo'limida qo'zg'olgan kazak otryadlarini tor-mor keltirib Amudaryodan o'tdi va Xiva xonligi yerlariga bostirib kirdi. Shimoliy otryad qo'shinlari Janub yo'nalishi bo'yicha urush harpakatlarini davom ettirib xonlikning asosiy yirik markazlarini egallab bordi. 29 dekabrda Xo'jayli, 9 yanvarda Ko'hna Urganch, Omonqal'a, 14 yanvarda Porsu, 16 yanvarda Ilolli, 18 yanvarda Toshxovuz bosib olindi. 20 yanvarga kelib G'ozibod va Badirkent egallandi. Janubiy otryad esa 24 dekabrda Amudaryoni kechib o'tdi va u ham bosqinchilik harakatlarini boshlab yubordi. Bu otryad qo'shinlari siquvi ostida Junaidxon lashkarlari G'ozibod va Paxtaqal'a tomon chekindilar, bu yerda qattiq jang bo'ldi. Junaidxon mazkur jangda o'zining 400 ga yaqin jangchilarini yo'qotdi.

Junaidxon bu mag'lubiyatdan keyin Qoraqumga qochib o'tishga majbur bo'ldi. Qizil armiya xonlik poytaxtini 1920 yil 1 fevral kuni egalladi. Asosiy hukmronlik Junaidxon qo'lida bo'lsa ham Sayyid Abdullaxon Xivaning rasmiy xoni edi. U xali Xivaga bosqinchilar kirmasidan oldinoq qizil armiyaning bosh qo'mondoniga vakil yuborib, urushni to'xtatishni talab qilgan edi. 2 fevralda u xonlikdan voz kechdi. Qizil armiya xonlik poytaxti Xivani deyarli qarshiliksiz egalladi. "Yosh xivaliklar"ning Toshkent va Chorjo'y qo'mitalari Xivaga hokimiyat bosib olinganidan ancha keyin keldilar. Xiva inqilobiy qo'mitasi hatto "Yosh xivaliklar"ning Toshkent tashkiloti raisi Polvonniyoz Yusupovni maxsus chaqirib oldi.

RSFSR Markaziy ijroqo'mi va Rossiya komfirqasi markaziy qo'mitasining Turkiston komissiyasi va Turkiston inqilobiy harbiy kengashining maxsus vakili G. Skalov Muvaqqat hukumatni tuzdi. Uning guvohlik berishicha, bu hukumat tarkibiga kirgan a'zolari Said Abdullaxon taklif etgan. Shundan so'ng muvaqqat hukumat tarkibiga mulla Jumaniyoz Sultonmurodov ("Yosh xialiklar"ning To'rtko'l qo'mitasi raisi), Muhammadjonbiy, Bobo'xun Salimov, Jaloloxun, Mulla Abdulxay qori, turkmanlardan Mulla O'roz va Mulla Navro'zlar kirgan. Birinchi kundan boshlab Xivada Rossiya hukumati, kompartiya va uning Turkkomissiyasi hamda Turkfront harbiy kengashi a'zolari G.Broyda, A.Izmaylov, G. Skalov va boshqalar hukmronlik qila boshladilar. Lenin boshliq bolsheviklar Petrogradga to'ntarish qilib sovet hukmronligini o'rnatish uchun qanday noqonuniy va harbiy to'ntarishni amalga oshirgan bo'lsalar, Xivada ham ayni shu ishlar



takrorlandi. Mahalliy o'ziga xos sharoit, tarixiy an'ana va urf-odat, xalqning xoxish-irodasi umuman e'tiborga olinmadi. Xonlikda bosh vazir lavozimida ishlagan Davlatmurod Tozamahrash otib tashlandi, hukumatning boshqa a'zolari qamoqqa olindi.

1920 yil 27-30 aprel kunlari Xiva shahrida xalq vpakillarining Butunxorazm 1-qurultoyi bo'lib o'tdi va unda Xiva xonligi hududida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligi e'lon qilindi. Qurultoyda respublika hukumati – Xalq Nozirlar Sho'rosi tuzilib, hukumat raisi etib Polvonniyoz xoji Yusupov, rais muovonligiga Boboovun Salimov va 15 nafar nozir (vazir) saylandi. Bu saylanganlarning 10 tasi “yosh xivaliklar”ning vakillari edi. Ular mamlakatda demokratik tuzumni o'rnatish, mustaqil davlatni barqarorlashtirish borasida katta ishlarni amalga oshira boshladilar. Ular hukumatni mahalliy sharoit, shariat va mustaqillik asosida boshqarishga harakat qildilar. P. Yusupov boshliq hukumat xususiy mulk, vaqf yerlarini, diniy muassasalarni tarqatib yuborish o'rniga ularni saqlab qolish va mustahkamlashga harakat qilayotgan edi. XXSRning konstitutsiyasida ham xususiy mulk e'tirof etilgan edi. Bu esa rus sovet hukumatining Xivadagi vakillariga yoqmad. Shu boisdan ham ularning faoliyati uzoqqa bormadi. Sovet hukumati XXSRning ichki ishlariga qo'pol ravishda aralasha boshladi, uning mustaqil ish olib borishiga deyarli imkon bermadi. Sovet hukumatining Xivadagi vakillari 1920 yil avgust oyida Qo'shmamedxon va G'ulomalixonlarni Xivaga chaqirib, ularni yigitlari bilan qatl qilishga va bu bilan mahalliy o'troq aholi va turkman chorvadorlari o'rtasida nizo tug'dirishga harakat qilishdi. G'ulomalixon qochib qutulgan bo'lsa ham, Qo'shmamedxon va uning yigitlari qatl qilindi. Biroq bu holatlarning hammasi “Yosh xivaliklar” hukumati zimmasiga yuklandi. Natijada 1921 yil 6 martda Xiva shahrida qizil askarlar tomonidan namoyish uyushtirilib, inqilobiy qo'mita tuzildi va Polvonniyoz xoji Yusupov boshliq hukumat a'zolari qamoqqa olindi. Polvonniyoz xoji Yusupov va Nazir Sholikorovlar qochib yashirinishga ulgurdi.

XXSRda kommunistlar olib borayotgan siyosat mahalliy kadrlarni, ziyolilarni, mustaqil fikrga ega bo'lgan kishilarni yo'qotishga qaratilgan edi. Xorazm respublikasi mavjud bo'lgan atigi 5 yilga yaqin muddat ichida respublika hukumati – Xalq Nozirlar Sho'rosi va Xorazm MIK raislari o'n martadan o'zgartirilganligi fikrimizning yaqqol isbotidir.

Xorazm respublikasi tuzilgan dastlabki oylardan boshlab g'oyaviy-siyosiy vaziyat keskinlashib bordi. Yosh xivaliklar hukumati, demokratik kuchlar mahalliy sharoitni tushungan holda aholining urf-odatlarini va qadriyatlarini e'zozlab ish olib bordilar. Ammo Xivani bosib olish jarayonida kirib kelgan qizil armiya, uning qo'mondonlari respublikadagi ijtimoiy-siyosiy hayotga salbiy ta'sir ko'rsatdilar. Ular mahalliy sharoitni, xalq ommasi kayfiyati va qarashlarini nazar-pisand qilmay tezkorlik bilan inqilobiy chora-tadbirlarni amalga oshirishga kirishdilar. Bu ishlarni amalga oshirishda Xorazm Kompartiyasi (1921 yil dekabrda tuzilgan) ularning eng yaqin yordamchisiga aylandi.

“Yosh xivaliklar” hukumati tez orada o'zlarining aldanganliklarini anglab yetdilar. Natijada ular rus kommunistik bosqiniga qarshi istiqloqchilik harakatiga otlandilar. “Yosh xivaliklar” qizil armiyaga qarshi kurash olib borayotgan Junaidxon va boshqa kuchlarga yordam berdilar.

Xorazm respublikasida keyingi yillarda ham g'oyaviy-siyosiy kurash davom etdi. Respublikaning ko'plab rahbarlari mustaqillik uchun kurashni to'xtatmadilar. 1923 yil bahorida savdo-sanoat noziri Nurullaev Moskvada RSFSR bilan bo'layotgan muzokaralarda qat'iylik ko'rsatgani uchun Xorazmga chaqirilib, qamoqqa olindi. Sovet Rossiyasining ko'rsatmalari asosida 1923 yil yoz-kuzida Xorazm respublikasida tub siyosiy to'ntarish amalga oshirildi. 1923 yil oktabrda XXSR Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi (XSSR) ga aylantirildi. XSSRning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Bu konstitutsiya davlatning sotsialistik qurilish yo'liga o'tishini qonunan mustahkamladi.



1920-yil 26-30-aprelda Butun Xorazm xalq vakillarining 1 qurultoyida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi — Xorazm XSR tuzilganligi tantanali ravishda eʼlon qilingan. Qurultoyda 15 kishidan iborat Xorazm XSR hukumati — Xalq Nozirlar Shoʻrosi (raisi Polvonniyoz hoji Yusupov) tuzildi.

Xorazm XSRning yosh hukumati Buxoro XSR, Turkiston ASSR, Rossiya SFSR davlatlaridan tashqari Finlandiya, Shvetsiya, Germaniya, Turkiya, Afgʻoniston, Eron kabi xorijiy davlatlar bilan ham mustaqil ravishda savdo-sotiq va iqtisodiy aloqalarni olib borishga harakat qildi. Masalan, 1921-yil 24-noyabrda Afgʻonistonga qozikalon Boboovun Salimov boshchiligida maxsus elchilik hayʼati joʻnatilgan. Xususan, Finlandiya bilan savdo-sotiq aloqalari samarali boʻlgan.

1920-yil 13-sentabrda Moskvada Rossiya SFSR bilan Xorazm XSR oʻrtasida 24 moddadan iborat Ittifoq shartnomasi va 15 moddadan iborat iqtisodiy bitim tuzilgan. Ittifoq shartnomasiga binoan, sovet Rossiyasi Xorazm XSR mustaqilligi va daxlsizligini rasmiy surʼatda tan olgan. Ittifoq shartnomasining 17-moddasi asosida alohida harbiy-siyosiy bitim ham tuzilgan. Unda Xorazm qizil armiyasi Rossiya SFSR homiyligi ostida tuzilishi taʼkidlangan.

Biroq shartnoma va bitimlarda koʻrsatilgan asosiy moddalarni, xususan, Xorazm SRning mustaqilligi va daxlsizligi huquqini sovet Rossiyasi tan olmay, doimiy ravishda yosh respublikaning ichki ishlariga qoʻpol ravishda aralashib turdi, Xorazmda katta miqdordagi qizil askarlarni saqlab, bu harbiy kuchlar orqali mamlakatni oʻzi boshqarishga intildi. 1921-yil 6-martda Xorazmda qizil askarlar uyushtirgan harbiy davlat toʻntarishidan keyin Polvonniyoz hoji Yusupov hukumati ham agʻdarib tashlandi. Hukumatning sobiq raisi yashirinishga ulgurdi. Biroq oradan koʻp oʻtmay u qamoqqa olindi. Bolsheviklar koʻplab nozirlarni otib tashlashdi. Tirik qolgan ayrim nozirlar Junaydxon safiga borib qoʻshilgan. Yosh xivaliklar partiyasining faoliyati taqiqlangan. 1921-yilning dekabrda Xorazm Kommunistik partiyasi tashkiliy jihatdan rasmiylashtirilgan.

1923-yil 17–20-oktabrda boʻlgan Butun Xorazm xalq vakillarining 4-qurultoyi Xorazm XSRni Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi (Xorazm SSR)ga aylantirish toʻgʻrisida qaror qabul qildi. 20-oktabrda Xorazm SSRning 5 boʻlim va 12 bobdan iborat yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Bu Konstitutsiya mamlakatning sotsialistik qurilish yoʻliga oʻtishini qonun yoʻli bilan mustahkamladi. Unga muvofiq, yerning xususiy mulk ekanligi bekor qilindi, vaqf yerlari butunlay tugatildi. Mavjud yerlar umumxalq mulki deb eʼlon qilinib, barcha vaqf mulklari maorif nozirligi ixtiyoriga berildi. Qozixonalar faoliyati taqiqlanib, sovet sudlari tashkil qilindi. Shu tarzda 1923-yil oktabr oyidan boshlab Xorazm Respublikasidagi demokratik oʻzgarishlarga chek qoʻyildi. Oliy organ har yili bir marta chaqiriladigan qurultoy boʻlib, u mamlakatni boshqaruvchi Xalq Nozirlar Sovetini saylagan. Mahalliy hokimiyat organlari rayon soveti – tuman shoʻrolari boʻlib, ushbu organlarning soni 22 ta boʻlgan. Yangi qabul qilingan Konstitutsiyaga muvofiq 18 yoshga toʻlgan har bir fuqaro qurultoy va mahalliy shoʻro organlariga saylash va saylanish huquqiga ega boʻlib, faqat aksilinqilobchilar, xoinlar, xon va uning oilasi, katta yer egalari, yirik ruhoniylar, jinnilar, umuman konstitutsiyaga qarshi chiquvchilar saylov huquqidan mahrum etilgan.

Mahalliy shoʻrolarning 14 tasi oʻzbeklar yashaydigan tumanlarga, 5 tasi turkmanlar yashaydigan tumanlarga va 3 tasi qozoqlar va korakalpoklar yashaydigan tumanlarga toʻgʻri kelar edi.

Xorazmni sovetlashtirish jarayoni oʻzining yuqori bosqichiga koʻtarildi. Hukumatning keskin yangi siyosatidan norozi boʻlgan barcha kishilar bunday vaziyatda istiqolchilar safini toʻldirdilar. Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakat Xorazm vohasiga ham keng tarqalgan edi. Xorazm SSRning markaziy va janubiy qismlarida koʻplab sardor va qoʻrboshilarning harakatlari yanada avj oldi.

1920–21-yillarda Xorazm XSRda agrar sohada dastlabki oʻzgarishlar amalga oshirilib, 10 ming desyatina yer dehqonlarga boʻlib berildi. Bundan tashqari, ularga urugʻ, dehqonchilik asboblari hamda ssuda (qarz) ajratildi. Dehqonlarga kredit hisobidan 5 ming chorva mol sotildi. Eski sugʻorish



inshootlarini qayta tiklash bilan birga yangilari ham qurildi. Masalan, 1922-yil oxirigacha Xorazm dehqonlari Hazoraspdan Xo‘jayligacha bo‘lgan hududda 12 ta damba qurdilar. 1922-yilda chorakor va kambag‘allarga yer bo‘lib berish uchun davlat yer fondi tuzishga hamda dehqonlarga uzoq muddatli va qaytarib olinmaydigan ssudalar berish uchun davlat dehqonlar bankini ta‘sis etishga qaror qilindi. Bankka 3 milliard so‘m mablag‘ ajratilgan. Xullas, 1921–22-yillarda 400 ming tanobdan ortiqroq yer kambag‘al dehqonlarga berildi.

Xorazm XSRda iqtisodiy siyosat va xo‘jalik sohasidagi islohotlar ziddiyatli tarzda kechdi. Xorazm Respublikasidagi soliq siyosatida sovet Rossiyasining ta‘siri kuchliroq bo‘lganligi uchun sinfiy yondashuv yaqqol namoyon bo‘ldi. Soliqning og‘ir yuki savdogarlar, sudxo‘rlar va yirik yer egalari zimmasiga to‘g‘ri keldi. 1922-yil dekabrda qishloq xo‘jaligida yagona soliq tizimi joriy qilindi. Soliq to‘lashni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish maqsadida davlat banki va soliq palatasi tashkil qilindi. 1923-yil iyunda hunarmandchilik va sanoat sohasidagi soliqlar ham bir tizimga solinib, davlat sanoat solig‘i joriy qilindi. Yangi iqtisodiy siyosat (NEP)ning e‘lon qilinishi bilan Xorazm XSRda karvonsaroylar, korxonalar, ko‘llar va to‘qaylar ijaraga berila boshlandi. Telefon simlari tortilib, daryo kemachiligi tiklashga kirishilgan. Bir qancha yirik ko‘priklar qurildi. Paxta maydonlarining hududi 1921-yildagi 10 ming tanobdan 1924-yilda 85 ming tanobga, hosildorlik 100 ming puddan 800 ming pudga ko‘tarildi. Umumiy ekin maydonlari 1913-yildagi darajaning 62 % ni, hosildorlik 70–75 % ni tashkil qildi. 1924-yilga kelib, 6 ta paxta tozalash zavodi, 10 ta g‘isht zavodi, yog‘ zavodi, bosmaxona, elektrstansiya tiklandi, qog‘oz va shisha zavodlari qurildi. Sanoatda davlat sektori ustuvor mavqeni egalladi.

O‘rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi (Sredaz EKOSO)ning tazyiqi natijasida 1923-yil yozida Xorazmdagi milliy valyuta Rossiya SFSR rubliga (10 Xorazm so‘miga 1 Rossiya SFSR rubli nisbatida) almashtirilgan edi. 1924-yildan boshlab Xorazm Respublikasi ham xuddi Buxoro XSR singari SSSRning yagona bank va moliya tizimiga to‘liq tortildi. Shu asnoda Xorazm SSR armiyadan keyin davlat mustaqilligini muhim timsoli bo‘lgan milliy valyutadan ham mahrum qilindi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Sovet hukumati XXSRning ichki ishlariga qo‘pol ravishda aralasha boshladi, uning mustaqil ish olib borishiga deyarli imkon bermadi.

Sovet hukumatining Xivadagi vakillari 1920 yil avgust oyida Qo‘shmamedxon va G‘ulomalixonlarni Xivaga chaqirib, ularni yigitlari bilan qatl qilishga va bu bilan mahalliy o‘troq aholi va turkman chorvadorlari o‘rtasida nizo tug‘dirishga harakat qilishdi. G‘ulomalixon qochib qutulgan bo‘lsa ham, Qo‘shmamedxon va uning yigitlari qatl qilindi. Biroq bu holatlarning hammasi “Yosh xivaliklar” hukumati zimmasiga yuklandi.

Adabiyotlar

1. Rajabova. R O'zbekiston tarixi. 1917-1993 yillar
2. Qoraqalpoq Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi tarixining ocherklari, II jild (1917–1963). Toshkent, 1964-yil, 68-bet.
3. Kuzmin S. 2018-yil. 20-asrning birinchi yarmida Ichki Osiyo mamlakatlarida monarxiyalarni yo‘q qilish mexanizmlari. //Sharqda din va jamiyat. 2-son, 188–45-betlar.
4. „Xorazm quyoshining botishi. Xiva xonligi qulatilganiga yuz yil to‘ldi“ (uz-latn). *Daryo.uz* (2020-yil 14-fevral). Qaraldi: 2023-yil 6-oktyabr.
5. „The Russian Revolution and the Khivan Khanate“ (en). *Art of Asymmetrical Warfare* (2021-yil 7-iyul). Qaraldi: 2023-yil 6-oktyabr.

